 F.Tojiyev

2022-yil “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ**  
(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot  
portaliga e’lon joylashtirish to’g’risida)

2022 yil 23 iyun

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi, Mehnat va Soliq kodekslariga ehtiyoj majudligi, davlat organlari shuningdek ko‘plab kitobxonlarning talab va takliflarini inobatga olgan holda nashr etish masalasini ko‘rib chiqish va e’lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot  
portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari  
va hujjatlari bo‘yicha e’lon matni**

**Tanlovga qo‘yilayotgan xizmat turi:**

O‘zbekiston Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi, Mehnat va Soliq kodekslarini kirill yozuvida chop etish.

**Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:**

1. Nashr etish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;
2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo‘lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o‘z texnik bazasiga ega bo‘lish;
3. Belgilangan vazifalarni g‘olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan mahsulot (kodeks)larni 7 (yetti) ish kuni davomida to‘liq tayyorlab “Buyurtmachi”ga topshirish;
4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlarga yo‘l qo‘ymaslik xususida ariza taqdim etish;
5. Tanlovda g‘olib chiqqan tashkilot (korxon) bilan Markaz o‘rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko‘zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;
6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 7 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma’lumot, uning moliyaviy holati haqida ma’lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval).

**Nashr etiladigan mahsulotning umumiy tavsifi:**

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi, Mehnat va Soliq kodekslarining formati: 60x90, 1/16, tisneniya bumvinilli qattiq muqova, ichki sahifa oq-qora, 70 gr ofset qog‘ozni tashkil etadi.

№	Mahsulot nomi	kitob dadi (dona)	hajmi	bir dona narx (QQS bilan )
1	Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeks	1000	816 bet	91 000
2	Mehnat kodeksi	1000	302 bet	52 000
3	Soliq kodeksi	500	704 bet	98 000

**Buyurtmachi nomi:** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

**Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami:** direktor F. Tojiyev Mirobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 19-uy. STIR: 201 453 166, 71 233-28-18

**Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli:** elektron talablar asosida.

**Buyurtmani bajarish muddati:** tomonidan nashrning elektron maketi berilgach 7 (yetti) kun.

**Tanlov o‘tkazish manzili:** Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 19-uy.

**Boshlanish muddati:** 23.06.2022-yil

**Tugallanish muddati:** 01.07.2022-yil

**Takliflarni topshirishning oxirgi muddati:** 2022-yil 1-iyul.


**Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:**

Tannarx, muddat, ko‘rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e‘lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.

• Komissiya tomonidan xizmat ko‘rsatish sifatli va o‘z vaqtida bajarish bilan bog‘liq boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;

• Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov g‘olibi aniqlanadi.

**Marketing, reklama  
va obuna bo‘limi boshlig‘i**



**F. Kuldashov**

**Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i**



**M. Yerdashev**

**Mehnatni muhofaza qilish  
va xo‘jalik ishlari mudiri**



**A. Tursunov**

**Rasmiy nashlarni va yuridik adabiyotlarni  
tayyorlash va tahrir qilish bo‘limi boshlig‘i**



**Sh. Abdullayev**

23.06.2022-yil